

JAHON VA MILLIY MEDIA AMALIYOTIDA GONZO USLUBINING AUDITORIYAGA TA’SIRI

Nodira Qobil qizi SULEYMONOVA

magistrant

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada gonzo jurnalistikasi uslubining jahon va milliy media amaliyotida qo‘llanilishi hamda uning auditoriyaga axboriy-psixologik ta’siri tahlil qilinadi. Gonzo uslubining asosiy xususiyatlari – muallifning ishtiroki, subyektiv yondashuv va ijtimoiy-siyosiy pozitsiyaning ochiq ifodalanishi aniqlanadi. Zamonaviy jahon jurnalistikasida Andrew Callaghanning “Channel 5” loyihasi, O‘zbekistonda esa “Subyektiv” YouTube kanali misol sifatida tanlab olinib, ularning gonzo uslubidagi elementlari tahlil qilinadi. Shuningdek, gonzo uslubi zamonaviy jurnalistikada muqobil yondashuv sifatida shakllanib borayotgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Tayanch so‘zlar: gonzo jurnalistikasi, subyektiv yondashuv, Andrew Callaghan, “Subyektiv” loyihasi, axboriy-psixologik ta’sir, alternativ media, zamonaviy jurnalistika.

ВЛИЯНИЕ СТИЛЯ «ГОНЗО» НА АУДИТОРИЮ В МИРОВОЙ И НАЦИОНАЛЬНОЙ МЕДИАПРАКТИКЕ

Нодира Кобил кизи СУЛЕЙМОНОВА

Магистрант

Университет журналистики и массовых
коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье рассматривается использование стиля гонзо-журналистики в мировой и национальной медиа-практике, а также его информационно-психологическое воздействие на аудиторию. Исследование выявляет ключевые черты гонзо — участие автора, субъективный подход и открытая социально-политическая позиция. В качестве примеров проанализированы проект Эндрю Каллахана «Channel 5» в западных СМИ и узбекский YouTube-канал «Subyektiv». Результаты показывают, что гонзо-стиль усиливает эмоциональное восприятие информации и способствует более глубокому вовлечению аудитории. Также подчёркивается, что данный стиль становится всё более востребованным как альтернативный формат в современной журналистике.

Ключевые слова: гонзо-журналистика, субъективный подход, Эндрю Каллахан, проект “Subyektiv”, информационно-психологическое воздействие, альтернативные медиа, современная журналистика.

XX asrning ikkinchi yarmi jurnalistika tarixida keskin o'zgarishlar davri bo'lib, unda axborot uzatishning an'anaviy shakllari yangi, dadil va eksperimental uslublar bilan boyidi. Ayniqsa, 1960–70-yillarda G'arb jamiyatida yuzaga kelgan siyosiy va ijtimoiy silkinishlar jurnalistika olamida ham o'z aksini topdi. Ana shu jarayonda paydo bo'lgan va keng jamoatchilik e'tiborini tortgan janrlardan biri bu – gonzo jurnalistikasidir. “Gonzo” atamasi ilk bor amerikalik yozuvchi va jurnalist Hunter S. Thompson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, u jurnalistikani subyektiv, hissiy va badiiy ifodalar bilan boyitish orqali yangi yo'nalishga asos soldi. Uning “Hell's Angels” [14] (Do'zax farishtalari) va “Fear and Loathing in Las Vegas: A Savage Journey to the Heart of the American Dream” [17] asarlari 1960-yillarning yosh avlodi uchun reportaj romanlarining klassik namunalariga aylandi. Bu asarlar nafaqat badiiy va jurnalistik yondashuvni uyg'unlashtirgan, balki gonzo-jurnalistikaning shakllanishiga ham katta hissa qo'shgan. Gonzo jurnalistikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi aynan Thompsonning ijodi bilan chambarchas bog'liq.

Tompsonning 1970-yilda “Scanlan's Monthly” jurnalida e'lon qilingan “The Kentucky Derby is Decadent and Depraved” [16] (Kentukki derbisida yengiltak va axloqi buzuvchilar) maqolasi gonzo uslubining asoschisi sifatida tan olingan. Ushbu maqola jurnalistikada yangi yo'nalishni – telbalarcha, subyektiv va shaxsiy yondashuvni taqdim etdi. Thompson Kentukkidagi mashhur ot poygasiga jurnalist sifatida borib, o'yin-kulgiga kelgan tomoshabinlarning xatti-harakatlarini va poyga jarayonini mast bo'lgan holatda kuzatib, kundaligiga yozgan. Bu eslatmalar asosida u qisqa muddat ichida qiziqarli va hayajonli reportaj yaratgan.

Gonzo jurnalistikasi jurnalistikaning klassik mezonlariga zid ravishda, aynan jurnalistning shaxsiy kechinmalari, emotsiyalari, baholari va hatto noaniqliklari orqali voqeani yoritishni maqsad qiladi. Unda muallif nafaqat kuzatuvchi, balki voqelikning to'laqonli ishtirokchisiga aylanadi. Bu yondashuv o'quvchiga hodisalarni yanada chuqurroq his qilish va anglash imkonini beradi. Aynan shu uslub orqali Thompson o'zining mashhur “Las-Vegasda qo'rquv va nafrat” (Fear and Loathing in Las Vegas)

[15] asarida real voqealarni badiiy tasvir bilan uyg'unlashtirib, o'quvchining ongiga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatishga erishgan.

Gonzo jurnalistikasining shakllanishi davrida Vetnam urushi, fuqarolik huquqlari harakatlari, kontrkultura va giyohvandlikka qarshi kurash kabi ijtimoiy masalalar dolzarb bo'lib, jurnalistikaning an'anaviy "neytral" pozitsiyasi jamoatchilik ehtiyojlariga javob bera olmay qoldi. Shu bois yangi uslub – emotsiyaga boy, individual pozitsiyaga ega, stilistik jihatdan erkin yondashuv jurnalistika olamida muhim burilish yasadi. Axborot jamiyatida auditoriya ehtiyojlarining diversifikatsiyalashuvi, ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali taqdim etilayotgan kontentga nisbatan ishonch inqirozi gonzo uslubining dolzarblashuviga zamin yaratdi. An'anaviy, neytral jurnalistikaga nisbatan ko'proq shaxsiy fikr, his-tuyg'u, iroda va tajriba bilan boyitilgan gonzo material auditoriyaga ko'proq ta'sir o'tkaza boshladi. Shunday tarzda, gonzo jurnalistikasi informatsion kommunikatsiyada faqat faktlar emas, balki ularning psixologik va madaniy kontekstini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Maqolada gonzo uslubining jahon va milliy media amaliyotidagi rivojlanish tendensiyalari, ushbu formatda yaratilgan materiallarning auditoriya ongiga ko'rsatgan ijtimoiy-psixologik ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, AQShda gonzo uslubining qanday qabul qilinayotgani va u orqali qanday ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatilayotgani o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida bu uslubning tajribalari, gonzo jurnalistikasi shakllanishidagi o'rni va auditoriya bilan interaktiv aloqani kuchaytirishdagi funksional roli tahliliy nuqtai nazardan yoritib beriladi.

Zamonaviy media makonida gonzo jurnalistikasi nafaqat mualliflik yondashuvi, balki auditoriyani voqelikning bevosita ishtirokchisiga aylantirish vositasi sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu uslubning zamonaviy namoyandalaridan biri – amerikalik jurnalist Endryu Kallagan (Andrew Callaghan) [2] bo'lib, uning "Kanal 5" (Channel 5) [3] deb nomlangan medialoyihasi so'nggi

yillarda gonzo formatining eng yorqin va ta'sirchan namunalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

“Kanal 5” loyihasi 2021-yil aprel oyida ishga tushirilgan bo'lib, ilgari mashhurlikka erishgan “All Gas No Brakes” [4] (“Barcha gazsiz tormozlar” 2019–2021) nomli loyiha davomchisi hisoblanadi. Kallagan ushbu yangi format orqali o'ziga xos shaxsiy uslubni saqlab qolgan holda, jurnalistikaning yangi bosqichini boshlab berdi. U har bir intervyuda voqea markazida turib, odamlarning kundalik hayoti, ijtimoiy faolligi, siyosiy qarashlari va hissiyotlarini o'zgartirilmagan, tabiiy holatda tasvirlaydi. Shu orqali Kallagan o'z tomoshabiniga faqat voqeani emas, balki voqelikning ichki jarayonlarini, insoniy hissiyot va ijtimoiy fojialarni ham yetkazadi.

Gonzo jurnalistikasi asoschisi Tompson tomonidan shakllantirilgan subyektiv pozitsiya, ironik ohang va voqealarga ichki aralashuv “Kanal 5”da zamonaviy interaktiv forma bilan uyg'unlashgan. Masalan, Kallagan tomonidan yoritilgan qora tanlilar mitinglari, anti-vaksin harakatlari, ekstremistik guruhlar yig'inlari yoki musiqiy festivallar – bularning barchasi gonzo yondashuvining zamonaviy ifodasi hisoblanadi. U o'zining muvozanatli, biroq bevosita va shaxsiy yondoshuvi bilan tomoshabinni hodisalar ichiga tortadi.

“Kanal 5” loyihasining eng muhim xususiyatlaridan biri – u professional jurnalistikadan ko'ra mustaqil, tezkor, muqobil axborot oqimini yaratishga intiladi. Kallagan ijtimoiy media vositalari, ayniqsa YouTube va Instagram orqali o'z auditoriyasi bilan bevosita aloqada bo'ladi. Bu esa, auditoriyani faqat passiv axborot iste'molchisi emas, balki faol tahlilchi va fikr bildiruvchi subyektga aylantiradi. Gonzo uslubining zamonaviy talqini aynan mana shu jihati bilan axborotning emotsional qamrovini, shaxsiy taassurotlar orqali uzatilishining kuchayishini anglatadi.

“Kanal 5” kontenti ko'pincha axboriy voqealarning shov-shuvli tomonini emas, balki chuqur ijtimoiy muammolarni ko'rsatishga urinadi. U odamlar fikrida mavjud stereotiplarni buzadi, ijtimoiy tafakkurga yangi savollar tashlaydi. Ayniqsa, “Bu joy

qoidalari” (This Place Rules) [5] nomli hujjatli filmida Kallagan AQShda ijtimoiy-siyosiy radikallashuv jarayonlarini chuqur ochib beradi. Bu material o‘zining ta’sirchanligi, emotsional kuchi va haqiqatga yaqinligi bilan gonzo uslubining kuchli kommunikativ salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Endryu Kallagan va uning “Kanal 5” loyihasi nafaqat gonzo jurnalistikasining yangi avlod vakili sifatida, balki ommaviy axborot vositalari bilan auditoriya o‘rtasidagi munosabatlar paradigmasini o‘zgartirayotgan muhim eksperiment sifatida ham qimmatlidir. Bu loyiha orqali biz gonzo uslubining bugungi kunda nafaqat jurnalistikada, balki ijtimoiy ong va axborot qabul qilish jarayoniga ko‘rsatgan real ta’sirini kuzatishimiz mumkin. Quyida muallifning bir necha eng mashhur bo‘lgan kontentlarini tahlil qilamiz:

1. “Bu joy qoidalari” (This Place Rules) turkumidan [1]. Bu hujjatli filmida Kallagan 2021-yil 6-yanvar kuni AQSh Kapitoliyiga bo‘lgan hujumga olib kelgan siyosiy va ijtimoiy muhitni o‘rganadi. U MAGA yurishlari, ekstremistik guruhlar va QAnon tarafdorlari bilan suhbatlar orqali AQSh jamiyatidagi chuqur bo‘linishlarni yoritadi. Filmida liberal va konservativ ommaviy axborot vositalarining voqealarni qanday qamrab olgani tanqid qilinadi. Kallagan Kapitoliyga bostirib kirganlarning aksariyati bilan shaxsan suhbatlashib, ularning motivlari, dunyoqarashi va e’tiqodlarini ochib beradi. Bu kontent orqali u ekstremizm, dezinformatsiya va siyosiy radikallashuv kabi global muammolarga gonzoqacha qarashi bilan yondashadi. Ayniqsa, jurnalist o‘z pozitsiyasini yashirmasdan, ammo voqealarni baholashni tomoshabinga qoldirishi orqali intellektual mas’uliyatni o‘z auditoriyasiga yuklaydi.

2. “Mayamida bahorgi ta’til” (Spring Break in Miami) [8]. Kallaganning ushbu reportaji 2021-yil pandemiya davrida Florida shtatida o‘tkazilgan yoshlar yig‘inini yoritadi. U ko‘chadagi real hayotni, ichkilikbozlik, ijtimoiy masofa buzilishi va axloqiy me’yorlarning buzilishini ochiq-oshkora ko‘rsatadi. Gonzo uslubining muhim belgilaridan biri bo‘lgan jurnalistning voqeaga ichki aralashuvi bu kontentda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Muallif nafaqat voqealarni tasvirlaydi, balki ularni bevosita tajriba

qilayotgan insonlar bilan birga turadi va suhbatlashadi. Ushbu uslub tomoshabinda kuchli hissiy reaksiyalar uygʻotadi, real hayotga bevosita kirib borishga chorlaydi.

3. “Vegas tunellari” (Vegas Tunnels) [18]. Bu film 2024-yilda Las-Vegasning tunellarida yashovchi odamlarning ogʻir turmushini bevosita koʻrsatgani sababli, tomoshabinni oʻz qulay ijtimoiy doirasidan chiqarib, marginal guruhlar holatiga boqishga majbur qiladi. Bu – axborot orqali empatiya uygʻotish jarayonidir. Psixologik jihatdan bu kontent ijtimoiy haqiqatlarni inkor etib kelgan yoki ularga befarq boʻlgan auditoriyani chuqur psixologik refleksiyaga undaydi. Gonzo jurnalistikasi bu yerda hissiyotga yoʻgʻrilgan haqiqat koʻzgusi sifatida ishlaydi.

4. “Saylov kuni” (Election Day) [6]. AQSHda 2024-yilgi saylovlar haqida tayyorlangan kontent, ayniqsa ikki siyosiy qutb orasida qolgan auditoriyaga muhim psixologik taʼsir koʻrsatdi. Kallaganning tarfkash boʻlmagan, ammo tanqidiy va ironik uslubda olingan intervyulari orqali tomoshabin siyosiy qarashlarini qayta koʻrib chiqish imkoniga ega boʻldi. Bu holatda axborot – haqiqatni kuch bilan singdiruvchi vosita emas, balki fikr shakllantiruvchi psixologik stimul sifatida harakat qiladi. Ayniqsa, yosh auditoriya ushbu kontent orqali siyosiy faollikka undaldi.

5. “Ommaviy deportatsiyalar” (Mass Deportations) [7]. Bu kontent tomoshabinlarda immigratsiya muammolariga nisbatan hissiy munosabatni kuchaytirdi. Ayniqsa, inson huquqlari va adolat kabi mavzular doirasida psixologik tortinish yuzaga keladi. Gonzo uslubining bevosita guvohlik berish shakli – yaʼni jurnalistning oʻzi ham muhitda boʻlishi – tomoshabinda sahna ichidagi real voqelikni “hissiy tan olish” refleksini shakllantiradi. Bunday kontentlar ayniqsa, jamiyatdagi qatlamlar oʻrtasidagi hissiy muloqotni jonlantiradi.

Xorijiy tajriba asosida gonzo jurnalistikasi uslubining auditoriyaga taʼsiri tahlil qilinar ekan, bu yondashuvning emotsional taʼsirchanlik, subyektivlik va jurnalistning bevosita ishtiroki orqali oʻquvchi bilan yaqin muloqot oʻrnatish xususiyati ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, endilikda ushbu uslubning oʻzbek media makonidagi namoyon boʻlishi, yaʼni gonzo jurnalistikasi elementlarining milliy axborot

maydonida qanday qabul qilinayotgani va ularning auditoriya ongiga ko'rsatgan ta'siri alohida ilmiy e'tiborni talab etadi. Zero, har qanday jurnalistik yondashuvning ijtimoiy samaradorligi nafaqat uning shakl va mazmuniga, balki u tatbiq etilayotgan madaniy, siyosiy va axborot muhitiga ham bevosita bog'liqdir. Shu bois, milliy media amaliyotida gonzo jurnalistikasi unsurlarining qanday shakllanayotganini tahlil qilish global tendensiyalarning lokal kontekstda qanday qiyofa kasb etishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek jurnalistikasida gonzo uslubining yorqin namunasi sifatida "Subyektiv" videoloyhasining kontentlarini misol keltirish mumkin. Bir yil oldin loyihaning boshlovchisi o'zgargandan so'ng ham ular tayyorlayotgan materiallar gonzo uslubiga mos tushadi. Loyihaning YouTubedagi kanalida 2024-yilning 18-may kuni "Maymun biznesi"ga [9] aylangan qurilishlar soni diqqatga sazovor hamda dolzarb mavzu ko'tarilgan. Bu ko'rsatuvda jurnalist an'anaviy neytral kuzatuvchilik pozitsiyasini chetga surib, voqelik markaziga o'zi kirib boradi, shaxsiy fikr va ironiyani vosita sifatida qo'llaydi. Gonzo jurnalistikasi uchun xos bo'lgan emotsional va kinoyali yondashuv videoning kirish qismidanoq seziladi: "qurilishlar maymun biznesiga aylandi" iborasi muallifning tanqidiy kayfiyatini ochiq bildiradi.

Ko'rsatuv davomida nafaqat faktlar, balki animatsiyalar, real voqealar, ishonchsizlikka uchragan fuqarolar hikoyalari orqali qurilish sohasidagi muammolar ko'rgazmali ifodalanadi. Ayniqsa, "aldangan xaridorlar", "chang uchun kefir tarqatilishi", "qamoqdan qaytgan maxbus" haqidagi segmentlar jurnalistikaning informativlikdan tashqari hissiy va vizual kuchini ham ishga soladi. Gonzo uslubining asosiy vazifalaridan biri – auditoriyada hayrat, g'azab, befarqlikka qarshi norozilik tuyg'ularini uyg'otish bo'lsa, mazkur material aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Shu tarzda, muallif jamiyatdagi korrupsiya, me'yoriy nazorat yetishmovchiligi, arxitekturadagi betartibliklar kabi ijtimoiy illatlarni shunchaki yoritmaydi, balki tomoshabinni ham ushbu muammolar ustida fikr yuritishga chorlaydi. Bu esa gonzo

jurnalistikasining zamonaviy o‘zbek media makonidagi ijtimoiy transformatsiyaga ta’sirchan vosita sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi.

“Maymun biznesi”ga aylangan qurilishlar” nomli videosi ostida qoldirilgan izohlar ushbu kontentning gonzo uslubiga xos emotsional va ijtimoiy ta’sir kuchini yaqqol namoyon etadi. Izohlar orasida “xalq dardini ko’targansizlar”, “nazorat kuchayishiga sabab bo’ldi”, “men arxitektura sohasini isloh qilmoqchiman” kabi fikrlar ko’rsatuvning oddiy tomoshabinlar ongida faqat informativ emas, balki motivatsion va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi kuchga egaligini ko’rsatadi. Gonzo uslubining asosiy xususiyatlaridan biri – jurnalistning subyektiv yondashuvi orqali muammoni jamiyatga “og’riqli” tarzda yetkazib, nafaol auditoriyani bevosita ijtimoiy muhokama va o’zgarishga undashidir. Aynan shu uslub orqali subyektivchilar ham faqat muammoga e’tibor qaratmay, balki muammoga qarshi kurashish ruhi bilan tomoshabinning ongini harakatga chorlaydi. “Aytilgan gaplardan foyda bo’ldi”, “rahbarlar bu masalani nazoratga olishlari kerak”, “davlat tashkilotlari bilan ham intervyu qilinglar” kabi izohlar esa bu ko’rsatuvni passiv iste’mol qilinadigan kontent emas, balki faol ijtimoiy rezonansga sabab bo’lgan media mahsulotga aylantirganini ko’rsatadi. Bu esa gonzo jurnalistikasining auditoriyani shunchaki axborot olish darajasidan ongli fuqarolik pozitsiyasigacha olib chiqishdagi samarasini milliy media amaliyoti misolida tasdiqlaydi.

“Subyektiv”ning navbatdagi 2024-yil 1-iyuldagi “Tug‘ilish: DNK, abort, qarindoshlar nikohi haqiqatlari” [10] sarlavhali soni – genetikaga oid savollar, o‘zlik izlanishlari va jamiyatdagi stereotiplar tahliliga bag‘ishlangan – o‘zbek ommaviy jurnalistikasi amaliyotida axboriy-psixologik ta’sirning kuchli misolidir. Ushbu ko’rsatuv mavzuni rasmiy yoki statistik yondashuvdan ko’ra, shaxsiy hissiyotlar, tarixiy izlanishlar va hayotiy intervyular orqali yoritgan. Videoning “Mingyillik DNK tahlili”, “Biz hammamiz qarindoshmiz”, “Abortdan omon qolgan yulduzlar” kabi segmentlari orqali ko’rsatuv auditoriyada shunchaki bilim emas, balki hayrat, ijobiy yoki qayg‘uli tuyg‘ular uyg‘otishga intiladi. Bu esa gonzo uslubiga xos bo’lgan

subyektiv yondashuv va muallifning shaxsiy pozitsiyasi orqali yuzaga keladi. Tomoshabinga “bugun o‘zimiz va o‘zingiz haqida gaplashamiz” deb murojaat qilinishi – an’anaviy jurnalistikadagi masofa saqlash tamoyilini buzib, muallifni va tomoshabinni bir xil kommunikatsion maydonga olib chiqadi. “Suhbat” nomli ijtimoiy rolik va “Farzandning qiz bo‘lishi faqat otaga bog‘liq” kabi ilmiy-nazariy asoslangan, lekin soddalashtirilgan izohlar orqali ham tomoshabin o‘z hayotiga bog‘liq muammolarni tahlil qilishga undaladi. Ayniqsa, video oxirida aytilgan demografik havotirlar – “O‘zbekistonda qizlar kamaymoqda” – masalani jamiyat miqyosidagi muhokamaga olib chiqib, gonzo jurnalistikasining muhim ijtimoiy signal beruvchi vosita sifatida ishlayotganini tasdiqlaydi. Shu orqali subyektivchilar milliy media amaliyotida faqat informatsiya yetkazuvchi emas, balki shaxsiylik, samimiylik va ta’sirchanlik orqali o‘zgarishga undovchi jurnalistikani shakllantirmoqda.

Ushbu sonning ostidagi foydalanuvchi izohlari gonzo uslubining auditoriyaga ko‘rsatgan axboriy-psixologik ta’sirini chuqur namoyon etadi. Bu izohlarda ko‘rsatuv faqatgina ilmiy ma’lumot beruvchi emas, balki hissiy va hayotiy muammolarga ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida qabul qilingani ayon. “3 marta yig‘lab ko‘rdim”, “bir zum boshqacha qaradik hamma narsaga”, “bu ko‘rsatuv bilan 1 soat qanday o‘tganini sezmadim” kabi fikrlar gonzo jurnalistikasining asosiy jihatlaridan biri bo‘lgan – tomoshabinni “voqeaning ichiga” kirgizish, uni passiv iste’molchidan faol his-tuyg‘u ishtirokchisiga aylantirish – maqsadiga erishilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, farzand masalasi, qiz va o‘g‘il tug‘ilishi bilan bog‘liq jamiyatdagi stereotiplar haqida fikr bildirgan izohlar – ko‘rsatuvda keltirilgan intervyular va genetik haqiqatlarning odamlar ongida yangi tushunchalar va qadriyatlarni shakllantirishga boshlaganini anglatadi. “Kelajakda kelinlarimdan qiz va o‘g‘il tug‘ilishini Alloh bersin” kabi izohlar orqali jamiyatda avval mavjud bo‘lgan jinsiy ustuvorlik stereotiplari asta-sekin ijobiy tafakkurga yo‘nalayotgani seziladi. Shuningdek, “Xromasoma va genetika haqida bilimlar uchun rahmat” degan mulohaza kontentning ilmiy-ommabop yo‘nalishini qadrlash darajasi yuqori ekanini

ko'rsatadi. Gonzo uslubida jurnalist nafaqat muammoni ochib beradi, balki o'zini ham hissiy jihatdan ochib, tomoshabinni o'ziga tortadi – aynan shu xususiyat subyektiv auditoriyasida chin yurakdan chiqayotgan izohlar, ko'z yoshlar va shukronalik tuyg'ularini yuzaga keltirgan. Bu esa O'zbekiston milliy media amaliyotida gonzo jurnalistikasi auditoriyani nafaqat informatsiya bilan, balki o'z hayotini qayta tahlil qilishga undaydigan kuch sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

“Osmondan pul yog'adigan davlatni izlab...” [11] nomli soni migratsiya mavzusini ommaviy, ammo chuqur kontekstda yoritgan bo'lib, gonzo jurnalistikasining zamonaviy o'zbek medialaridagi ta'sirchan namunasi sifatida ajralib turadi. Jurnalist mavzuni faqat raqamlar va faktlar orqali emas, balki shaxsiy kuzatuv, izlanish va hissiy yondashuv orqali bayon qiladi, bu esa tomoshabinni mavzuning bevosita ishtirokchisiga aylantiradi. Ko'rsatuvda berilgan dolzarb ma'lumotlar – vizasiz kirish mumkin bo'lgan mamlakatlar, ko'chib borganlarga moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi davlatlar, Yevropa va Amerikadagi ishga joylashish yo'llari, O'zbekistondagi mehnat bozori haqida raqamli tahlillar – auditoriyaga haqiqatni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, jurnalistning “surish kerak” deb atalgan muvaffaqiyat formulasini tanqidiy va ishtirokchan tarzda ko'rsatishi, muhojirlikka undovchi ichki ijtimoiy bosimlar va orzular hamda real shartlar o'rtasidagi tafovutni aniqlab beradi. Gonzo uslubining o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lgan – muallifning shaxsiy pozitsiyasi, kinoya va kuchli psixologik ohang bu ko'rsatuvda ham saqlangan bo'lib, migratsiyani nafaqat imkoniyat, balki ijtimoiy-e'tiqodiy siqilish natijasi sifatida yoritishga xizmat qiladi. “Subyektiv”ning bu soni orqali gonzo jurnalistikasi nafaqat muammoni aks ettiruvchi vosita, balki hayotiy yo'l tanlashda auditoriyaga psixologik ko'mak beruvchi omil sifatida ham qaralayotgani ayon bo'ladi.

Ushbu son nafaqat statistik ma'lumotlar va qonuniy imkoniyatlar bilan tomoshabinni qurollantirdi, balki izohlar orqali ko'rinib turibdiki, bu chiqish tomoshabinlar ongida real hayotiy qarorlar va fikr-mulohazalarni shakllantirishga xizmat qilgan. Masalan, Rossiyada ishlayotgan yurtdosh o'z tajribasi bilan bo'lishar

ekan, fuqarolik olish istagining yoʻqligini, asosiy orzusi vatanga qaytish ekanini bildirgan. Bu izoh jurnalistning koʻrsatuvda ilgari surgan “yurtga sadoqat” va “migrant boʻlib qolish emas, qaytish uchun ketish” gʻoyasiga uygʻun ravishda shakllangan. Yana bir izoh egasi esa 15 yildan beri Yevropada yashayotganini aytib, u yerda tinch, barqaror hayot tarzidan minnatdorligini bildirgan holda, ilm olish va oʻz ustida ishlashga urgʻu bergan. Bu esa koʻrsatuvda berilgan “kasbiy va intellektual tayyorgarlik migratsiyadagi asosiy omildir” degan gʻoyaning mustahkam taʼsirini koʻrsatadi.

Shuningdek, izohlarda din, korrupsiya, adolatsizlik va yolgʻonchilik Oʻzbekistonda qolishni emas, ketishni ragʻbatlantirayotgan omillar sifatida tilga olinmoqda. Bu fikr koʻrsatuv davomida tilga olingan “surish kerak” formulasi ortidagi ijtimoiy siqilishlarni mustahkamlaydi. Ayni paytda, ijobiy ohangdagi izohlarda yoshlar sifatli xodim boʻlishga intilishi, kasb tanlash va hunar oʻrganish zarurligi borasidagi ruhiy ragʻbatni kuzatish mumkin. Umuman olganda, ushbu koʻrsatuv gonzo uslubining kuchli jihatlaridan biri – shaxsiy yondashuv va ishtirok orqali tomoshabinning oʻz hayoti haqida fikrlashiga sabab boʻlish vazifasini muvaffaqiyatli bajargan. Izohlar bu format nafaqat informatsiyaviy, balki ijtimoiy ongni uygʻotuvchi vosita sifatida qanday taʼsir koʻrsatayotganini ochiq tasdiqlaydi.

“Yama”larga toʻla tizim” [12] koʻrsatuvi transport tizimi, yoʻl infratuzilmasi va jamoat transportining holatiga oid keng qamrovli tahlilni taqdim etadi. Ushbu koʻrsatuvda koʻplab tizimdagi kamchiliklar, xususan, avtovokzallar va yoʻllardagi nosozliklar, shuningdek, temiryoʻl va aviatsiya tizimining qimmatligi tadqiq qilinadi. Tahlil natijalariga koʻra, koʻrsatuvda keltirilgan statistik maʼlumotlar va mutaxassislarning fikrlari transport tizimidagi muammolarni yoritishda nafaqat real holatni koʻrsatib, balki ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy nuqtai nazardan ham muhim jihatlarni ochib beradi.

Koʻrsatuvda, avtovokzallar va yoʻllardagi holat masalalari oʻrganilgan va bu kamchiliklar nafaqat transportni ishlatish qulayligiga, balki uni iqtisodiy

samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Avtovokzallarning holatsizligi va yo'l infratuzilmasining yomonligi, odamlarning harakatini cheklab, transport vositalarining kechikishiga olib kelmoqda, bu esa iqtisodiy faoliyatni sekinlashtiradi va jamoatchilikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Yama"larga to'la tizim" ko'rsatuvining asosiy tahliliy jihatlaridan biri – ko'rsatuvning yo'l va transport infratuzilmasining samaradorligiga ta'sirini chuqur o'rganishdir.

Transport tizimida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun tizimni isloh qilish zarurligi haqida ko'rsatuvda takliflar ilgari surilgan. Aviatsiya va temiryo'l sohasidagi monopoliyalarni bartaraf etish, xarajatlarni kamaytirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish kabi takliflar, transport tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu ko'rsatuvning asosiy ilmiy qiymati, transport tizimining faqat texnologik emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ham o'rganishdir. Bu, shubhasiz, davlat va jamoat transporti tizimini samarali boshqarishning muhim qadamidir.

"Yama"larga to'la tizim ko'rsatuvining ommaviy tahlili va izohlarida, O'zbekistonning transport tizimidagi jiddiy muammolar va uning jamiyatdagi ta'siri keng muhokama qilingan. Izohlar va ko'rsatuvning mazmuni shundan dalolat beradiki, transport tizimi, xususan avtovokzallar va yo'llarda mavjud kamchiliklar faqat transport tizimi ishtirokchilariga emas, balki jamiyatning keng qatlamlariga ham bevosita ta'sir qiladi.

Izohlarda jamoat transportining yomon holati, ayniqsa avtovokzallar, yo'llar va avtobuslarning sust ishlashi, odamlarning psixologik holatiga ta'sir ko'rsatishi haqida fikrlar bildirilgan. O'zbekistonliklar uchun, yo'llardagi shikastlanishlar va transportdagi noxush holatlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Bu transport tizimining nafaqat amaliy, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ham ko'rsatadi, chunki yomon infratuzilma fuqarolarni qiyinchiliklarga olib keladi va ularning kundalik hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Avtovokzallar va yo'llardagi sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan takliflar ilgari surilgan bo'lsa-da, ko'plab izohlarda bu

masalalar mutasaddilarning e'tiboridan chetda qolishi, bu masalalarga ijtimoiy befarqlik va e'tiborsizlik kabi nuqtai nazar bilan yondashilayotganini ko'rish mumkin. Ko'rsatuvning bir nechta izohlarida aholi va rahbarlar o'rtasidagi tafovut, hukumatchilar va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar haqida tanqidiy fikrlar bildirildi.

Ko'rsatuvda transport tizimida monopoliyalar va kamchiliklar mavjudligi ta'kidlangan va bu masalalarni bartaraf etish uchun o'zgarishlar kiritish zarurligi haqida takliflar ilgari surilgan. Biroq, ko'plab izohlarda, ayniqsa, davlat organlarining passivligi va befarqligi yozilgan. Ko'rsatuvda nafaqat transport tizimining holati, balki uning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari, shu jumladan, fuqarolarning hayot sifatiga ta'sirini yaxshilash uchun zarur choralarga ham urg'u berilgan.

“Kim aybdor: o'qituvchi yoki o'quvchi?” [13] O'zbekistonning o'rta ta'lim tizimi bo'yicha subyektivchilarning yangi mavzusi o'qituvchilik va o'quvchilik masalalarini chuqur tahlil qilgan. Savodxonlik reytingida dunyo bo'yicha yuqori o'rinlarda turgan O'zbekiston, moliyaviy savodxonlikda esa orqada qolmoqda, bu esa ta'lim tizimidagi jiddiy muammolarni ko'rsatadi. Ko'rsatuvda o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan e'tiborsizligi, ota-onalarning ta'limga nisbatan befarqligi, shuningdek, o'quv tizimining zamonaviy talablarga javob bermasligi kabi masalalar muhokama qilingan.

Videoning boshida ta'lim tizimidagi noaniqliklar, o'qituvchilarni va o'quvchilarni qiziqtirishdagi qiyinchiliklar haqida so'z yuritilgan. Zerikarli darslar, gadjetlar va boshqa zamonaviy ta'lim usullari ta'limni jozibador qilishda o'z rolini o'ynashi kerak, lekin ko'rsatuvda ta'kidlanishicha, bu elementlar tizimdagi muammolarni bartaraf etishga yordam bermayapti. O'quvchilarni darslarga qiziqtirishda eng katta muammo shundaki, “qotib qolgan” dars uslublari va o'qituvchilarning hozirgi sharoitda o'z bilimlarini yangilashga bo'lgan ehtiyoji yuzaga keladi.

Ko'rsatuvda o'quvchilar taomnomasi va maktab hojatxonalari kabi ijtimoiy-psixologik jihatlar ham ko'rib chiqilgan. Bu jihatlar ta'lim sifatini belgilashda muhim

omil bo'lib, ularning yomon holati o'quvchilarning maktabga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ko'rsatuvda o'qituvchilik kasbining jozibadorligi ham muhokama qilingan. Ustozlarning faqat ma'lum maosh olishlari emas, balki ilmni sevishlari va o'quvchilarga haqiqiy bilim berishga intilishlari zarur ekanligi ta'kidlangan. O'qituvchilarni qadrlash, ularning mehnatini rag'batlantirish va ta'lim sohasiga qiziqishni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Video davomida keltirilgan 8 km maktabga borish masalasi ham juda muhim. O'zbekistonning ayrim hududlarida o'quvchilarning maktabga borishi o'ta qiyin va uzoq yo'llarni bosib o'tishni talab qiladi. Bu esa ta'lim olishga bo'lgan qiyinchiliklar va unga bo'lgan ishtiyoqning pasayishiga olib keladi. Ko'rsatuvda ta'kidlanishicha, ta'limni yaxshilash uchun o'qituvchilarning samaradorligini oshirish va o'quvchilarga qulay sharoitlar yaratish zarur. Shuningdek, yangi fanlar qo'shish, ingliz va rus tillarini tanlash masalalari ham ko'rsatilgan. Bu o'zgarishlar, albatta, ta'lim tizimining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin asosiy muammo tizimning zamonaviy talablarga moslashmasligi va o'quvchilarni rag'batlantirish bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ko'rsatuv ta'lim tizimining asosiy muammolarini ochib bergan. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, o'qituvchilarni rag'batlantirish va o'quvchilarni ta'limga qiziqtirish zarurati haqida jiddiy fikrlar bildirilgan. Ta'lim tizimining yaxshilanishi uchun nafaqat o'qituvchilarni, balki ota-onalarni ham mas'uliyatga tortish, maktab infratuzilmasini yangilash va zamonaviy talablarga moslashtirish lozim. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishga yordam beradi. Video ostidagi izohlar, o'qituvchilik kasbiga bo'lgan hurmatning pastligi, ota-onalar va o'quvchilarning ta'limga befarq munosabati, sharoitlarning yomonligi, hamda ta'lim metodlarining eskirganligi kabi jiddiy masalalarni ko'taradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gonzo uslubi nafaqat ijtimoiy-siyosiy muammolarni jonli va samimiy yoritishda, balki auditoriya bilan kuchli emotsional aloqani o'rnatishda ham muhim vosita hisoblanadi. Jahon va milliy media tajribasida

gonzo uslubining auditoriyaga ko'rsatgan ta'siri uning o'ziga xosligi, muallif shaxsiyatining materialda faol ishtirok etishi va tanqidiy fikrni yorqin ifodalash imkoniyati bilan bevosita bog'liqdir. Shunday qilib, gonzo uslubi zamonaviy axborot makonida ijtimoiy ongni shakllantirish, jamoatchilik muhokamasini jonlantirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'zining o'rni va ahamiyatiga ega ekanini isbotladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A New Documentary Makes the Case That Jan. 6 Was the 'Dumbest Day of All Time. URL: <https://time.com/6244882/andrew-callaghan-interview-this-place-rules-jan-6/>
2. Callaghan's website URL: <https://andrew-callaghan.com/>
3. Callaghan's "Channel 5" Media project URL: <https://www.patreon.com/channel5>
4. Callaghan's "All Gas No Brakes" Media project URL: <http://www.youtube.com/@allgasnobrakes2491>
5. Callaghan. "This Place Rules", URL: <https://www.imdb.com/title/tt23950956/>
6. Election Day. URL: https://youtu.be/_aDM_rmt0hI?si=1g_FwPSAH7kVMY7H
7. Mass Deportations. URL: <https://youtu.be/mEWuL6-iWOY?si=Dr535Wdz--21VVFj>
8. Miami Beach Spring Break. URL: https://youtu.be/cNohbgowbd0?si=_QHHcA0hMnn-xa6j
9. "Subyektiv" loyihasi, "Maymun biznesi"ga aylangan qurilishlar". URL: <https://youtu.be/yQYcQ4HvdJE?si=vdVT142btX36NQ1H>
10. "Subyektiv" loyihasi. "Tug'ilish: DNK, abort, qarindoshlar nikohi haqiqatlari". URL: <https://youtu.be/FLCjzXLGwKM?si=RHEW-y-Zht0YL9dO>
11. "Subyektiv" loyihasi. "Osmondan pul yog'adigan davlatni izlab...". URL: https://youtu.be/_ZoAZVaUSPQ?si=rvsfCFnCeFXE6q-C

12. “Subyektiv” loyihasi. “YAMA”larga to‘la tizim”. URL:
<https://youtu.be/2wXMtUfZB-Q?si=WlsULfk6vayVXR0T>
13. “Subyektiv” loyihasi. “Kim aybdor: o‘qituvchi yoki o‘quvchi?”. URL:
https://youtu.be/c73U7_i5yBQ?si=WoElj2DFTFboiaOz
14. Thompson H. “Hell’s Angels: The Strange and Terrible Saga”, Penguin Books.
– 1966, p. 143.
15. Thompson H. “Fear and loathing in Las Vegas and other American stories”,
New York: Modern Library. – 1996, p. 210.
16. Thompson H. The Kentucky Derby is Decadent and Depraved // Scanlan’s
Monthly. – 1970. – №6. – p.25.
17. Thompson H. “Fear and Loathing in Las Vegas: A Savage Journey to the Heart
of the American Dream”. – New York: Random House, 1971. – 204 p.
18. Vegas Tunnels. URL:
<https://youtu.be/bRGrKJofDaw?si=qMP8EyOf4kAD4mIZ>